

TOHIR MALIK ASARLARIDA EGASI UMUMLASHGAN VA SHAXSI NOMA'LUM GAPLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Termiz davlat universiteti talabasi: **G'affarova Gulbahor**

Ilmiy rahbar: **D.Ergasheva**

Anotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikdagi egasi umumlashgan va shaxsi noma'lum gaplar haqidagi ilmiy fikrlar namunalar asosida tahlil etilgan. Ularning o'zaro farqlari va gapda qo'llanilishi misollar bilan yoritilgan.

Annotation: In this article, scientific materials about generalized and personal indefinites in linguistics are analyzed on the basis of samples. Their differences are explained with examples given in the sentence..

Kalit so'zlar: shaxsi umumlashgan gap, shaxsi noma'lum gaplar, egasiz gaplar, atov gaplar, so'z gaplar, majhul nisbat.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi (Pm)– kesimlik kategoriyasida mujassamlashgan shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiruvchi gap kengaytiruvchisidir. Masalan: Hanifa uy yumushlarida onasiga yordamlashdi. Gapida Hanifa ega vazifasini bajaruvchi bo'lak. Gapda ega vazifasini bajaruvchi bo'lakni turlicha talqin qilish mumkin:

Tilshunoslikda egasi konkret bo'lmagan, kesimi orqali ifodangan harakat umumga qaratilgan gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Egasi umumlashgan gaplarning kesimi odatda ikkinchi shaxsning birligi formasidagi fe'l bilan ifodalanadi. Masalan: Tulkining tavbasidan qo'rq mug'ombirning yig'isidan. Ushbu gapda mantiqan o'ylab qaralsa, gapning mazmuni barcha shaxsga aloqador.

Egasiz gaplarda ega umuman ishtirok etmaydi va gapning ma'nosidan anglashilmaydi.

Egasiz gaplar uch turga bo'linadi:

Shaxsi noma'lum gaplar

Atov gaplar

So'z gaplar

Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi - uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni ifodalab bo'lmaydi: Masalan: Amir farmoni o'qildi gapida gapning kesimi III-shaxs majhul nisbatdagi fe'l shakli va harakat kimdir tomonidan bajarilgan.

Yuqoridagi egasi umumlashgan va shaxsi noma'lum gaplarning lingvistik tahlilini Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asari asosida namunalarni keltirish mumkin.

Kim Alloh qo'rquvidan yig'lasa, Alloh u ko'zni jahannam otashiga harom qiladi. (T.Malik. Odamiylik mulki. 7-bet) Falokatga duchor bo'lishni istamasang mag'rur va mutakabbir bo'lma. (T.Malik. Odamiylik mulki. 11-bet) Rohatda yashashni istasang dilingni hirsdan pok qil. (T.Malik. Odamiylik mulki. 11-bet) Qadr qimmatini oshirishni istasang baland himmatli bo'l. (T.Malik. Odamiylik mulki. 11-bet) Ishing pushaymonlik bilan natijalanishini istamasang, avval yaxshiroq o'ylab, dono, tajribakorlar bilan kengashib, so'ngra ishga kirish. (T.Malik. Odamiylik mulki. 11-bet)

Keltirilgan namunalarning har biri shaxsi umumlashgan gapga misol bo'ladi, sababi barcha gapning mazmuni barcha shaxslarga tegishlidir. Bu tipdagi gaplarni qo'llash bilan o'z xabariga harakterini beradi, ishora qilinayotgan harakatning mazmuni umumga qaratilgan hayotiy xulosalar, uzoq asrlik qoidalar umumlashgan mulohazalardir. Yuqorida namuna sifatida keltirilgan gaplar pand-nasihati yo'sinida butun xalqqa qarata aytilgan.

Tohir Malikning "Devona" asaridagi ayrim shaxsi noma'lum gaplarning lingvistik tahlili haqida gap ketganda quyidagilar keltiriladi.

1. O'tgan zamondagi xatolar tahlil qilib turilsa bas. (T.Malik "Devona" 8-bet) 2. Turmush qurishning hech qanday ma'nosi qolmagan hozir. Tabiiy zarurat tufayligina turmush quriladi. (T.Malik. Devona. 18-bet) Hayot so'nmasligi uchun nasl qoldiriladi. (T.Malik "Devona" 18-bet) *Bechoraman, bedavoman qanotlarim qayrilgan umidim rishtalari kesib qo'yilgan.* (T.Malik "Devona" 21-bet)

Keltirilgan namunalarni shaxsi noma'lum gaplardir, sababi kesimi majhul nisbatda ifodalangan. Ushbu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi. Shaxsi noma'lum gapga yana bir namuna keltirishimiz mumkin. *Endi diqqatni bir yerga jamlab o'ylab ish yuritish kerak.* (T.Malik. Devona. 87-bet) gapida quyidagi qolipni keltirishimiz mumkin. -sh, -ish + kerak, lozim, mumkin, zarur, darkor, shart. Yuqoridagi gap aynan shu qolipga mosligi sababli shaxsi noma'lum gap hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki shaxsi umumlashgan gap umumga qaratilgan tarbiyaviy pand nasihat yo'sindagi fikr, bunga maqol, matal, hikmatli so'z kabilarni misol qilish mumkin. Shaxsi noma'lum gap esa harakat bajaruvchisi mantiqan anglanadi lekin harakat kim tomonidan bajarilgani aniq emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ra'no Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009.
2. Baxtiyor Mengliyev Hozirgi o'zbek tili Toshkent, "Excellent polygraphy", 2020.
3. WWW.Ziyo.uz sayti.
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)